

O'ZBEK XALQ ERTAKLARI VA QO'SHIQLARIDA AYOL OBRAZINING BADIY-ESTETIK TALQINI

Bonu Abdurahimova

Samarqand davlat pedagogika instituti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Anorqulova Ozoda

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.12.2025

Revised: 30.12.2025

Accepted: 31.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*xalq og'zaki ijodi, folklor, ayol
obrazi, ertak, qo'shiq, badiiy
talqin, lirik kechinma, ijtimoiy
maqom, milliy qadriyatlar*

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining yetakchi janrlari hisoblangan ertak va qo'shiqlarda ayol obrazining badiiy-estetik talqini qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ertaklarda ayol obrazining ijtimoiy-axloqiy ideal sifatida shakllanishi, qo'shiqlarda esa ayolning ichki ruhiy kechinmalari va subyektiv holati ifodalanishi yoritiladi. "Zumrad va Qimmat" ertagi hamda "Alla", "Kelin salom" kabi qo'shiqlar misolida o'zbek ayolining jamiyatdagi o'rni, axloqiy fazilatlari, orzu-umidlari va ruhiy olami ilmiy asosda tahlil etiladi.

Xalq og'zaki ijodi o'zbek xalqining ko'p asrlik hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari va estetik didini mujassamlashtirgan muhim ma'naviy merosdir. Ushbu ijod namunalarida jamiyatning axloqiy me'yorlari, insoniy fazilatlari hamda ijtimoiy munosabatlari badiiy shaklda aks etadi. Ayniqsa, ayol obrazi folklorda alohida estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, u xalq dunyoqarashining muhim timsollaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining kollektivlik, og'izdan og'izga o'tish, variantlilik va an'anaviylik kabi xususiyatlari ayol obrazining avloddan avlodga o'tib, doimiy ravishda sayqallanib borishiga

imkon yaratgan. Natijada ayol obrazi folklorda nafaqat individual qahramon, balki xalqning ijtimoiy va axloqiy ideallarini ifodalovchi badiiy timsol darajasiga ko'tarilgan.

O'zbek folklorida ayol obrazi turli janrlarda turlicha talqin etiladi. Xususan, ertaklarda ayol ko'proq ijtimoiy hayotdagi ideal xulq-atvor egasi sifatida tasvirlansa, qo'shiqlarda uning ichki ruhiy kechinmalari, dardlari va orzu-umidlari lirik ohangda ifodalanadi. Shu jihatdan ertak va qo'shiqlarni qiyosiy tahlil qilish ayol obrazining yaxlit badiiy tizimini ochib berishga xizmat qiladi.

Ertaklarda ayol obrazi axloqiy ideal va ijtimoiy mezon sifatida. O'zbek xalq ertaklarida ayol obrazi jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy me'yorlarning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, maishiy ertaklarda ayol obrazi ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligi asosida yaratiladi. Bunda ijobiy qahramon sifatida tasvirlangan ayol mehnatsevarlik, sabr-toqat, kamtarlik va donishmandlik kabi fazilatlar bilan ajralib turadi. Misol: "Oqila qiz podshohning barcha tilsimlarini topibdi. Uning aqli va farosati butun mamlakatga doston bo'libdi". Ma'lum bo'ladiki, Ertaklarda ayol ko'proq aql-idrok, sabr-toqat va go'zallik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

"Zumrad va Qimmat" ertagi ushbu jihatdan muhim manba hisoblanadi. Zumrad obrazi xalqning ideal qiz haqidagi tasavvurlarini mujassamlashtiradi. Uning kattalarga hurmati, mehnatsevarligi va kamtarligi xalq pedagogikasining asosiy tamoyillarini ifodalaydi. Misol: "Zumrad buvisini aytgan ishni indamay qiladi, uyni supuradi, ovqat pishiradi, hatto kampirning sochlarini tarab, ko'nglini oladi". Bu detallar orqali xalq pedagogikasi qiz bolani bo'lajak oilaviy hayotga tayyorlash, unda chidamlilik va xizmat orqali hurmat topish ko'nikmasini shakllantirishni maqsad qiladi. Zumradning kampirga sidqidildan xizmat qilishi orqali xalq qiz bola tarbiyasida mehnat va sabr muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Qimmat va o'gay ona obrazlari orqali hasad, dangasalik va adolatsizlik kabi illatlar keskin qoralanadi. O'gay onaning Zumradga nisbatan zolimona munosabati oilaviy munosabatlarda adolatning buzilishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini ko'rsatadi. Shu tariqa ertak ayol obrazini axloqiy "mezon" sifatida ilgari suradi.

Qo'shiqlarda ayol obrazi: ruhiy kechinma va lirik talqin. Agar ertaklarda ayolning tashqi xulqi va ijtimoiy roli ustuvor bo'lsa, xalq qo'shiqlarida uning ichki ruhiy olami birinchi planga chiqadi. Lirik qo'shiqlar ayolning his-tuyg'ulari, sog'inchlari va umidlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Olmacha anor, dardingdan man bemor,
Kelmasang netay, yo'lingga man intizor

Bu satrlarda o'zbek ayolining sadoqati va intizorlik bilan kutishdagi ruhiy holati aks etgan.

“Alla” qo'shiqlari ayol obrazining onalik qiyofasini ochib beradi. Bu qo'shiqlarda ona farzandiga bo'lgan cheksiz muhabbatini, uni kelajakda baxtli ko'rish orzusini ifodalaydi. “Alla” orqali ayol o'z ichki kechinmalarini ochiq bayon qila oladi, bu esa qo'shiqlarning chuqur lirik tabiatini belgilaydi:

Alla aytay, jonim bolam, Quloq solgin, alla.

Shirin allam tinglab, asta, Uxlab qolgin, alla.

Sevganimdan yodgorimsan, Oltin qo'zim, alla-yo.

Men sho'rlikday to'kilmagin, Ko'rar ko'zim, alla.

Mazkur “Alla” qo'shig'i o'zbek xalq og'zaki ijodida ayol obrazining onalik qiyofasini ifodalovchi eng muhim lirik namunalardan biridir. Qo'shiqda ayol obrazi tashqi harakatlar orqali emas, balki ichki ruhiy monolog orqali ochiladi. Bu holat folklordagi ayol obrazining emotsional va ruhiy qatlamini yoritishga xizmat qiladi. “Alla aytay, jonim bolam” misrasi orqali ona va farzand o'rtasidagi bevosita ruhiy bog'liqlik ifodalanadi. Ona farzandiga murojaat qilar ekan, uni “jonim” deb atashi ayol obrazining mehr-muhabbatga yo'g'rilganligini ko'rsatadi. Bu yerda ayol, avvalo, ona sifatida gavgdalanadi. “Sevganimdan yodgorimsan” satrida esa ayolning hayotiy tajribasi va ichki kechinmalari ochiladi. Farzand nafaqat bola, balki ayol uchun umrining ma'nosi, o'tmishi va kelajagini bog'lovchi muqaddas timsol sifatida tasvirlanadi. Bu holat xalq qo'shiqlarida ayol obrazining fidoyilik va sabr bilan chambarchas bog'langanini ko'rsatadi. “Men sho'rlikday to'kilmagin” misrasi ayolning ichki xavotiri va hayotdagi mashaqqatlardan farzandini asrash istagini ifodalaydi. Bu orqali qo'shiqda ayolning ijtimoiy va ruhiy kechinmalari, uning o'z taqdiridan kelib chiqadigan dardi bilvosita aks etadi.

“Kelin salom” va “Yor-yor” kabi marosim qo'shiqlarida ayolning ijtimoiy maqomi o'zgarishi badiiy ifoda topadi. Qiz bolaning ota uyidan kelinlik hayotiga qadam qo'yishi, yangi muhitga moslashuvi va unga yuklangan mas'uliyat ushbu qo'shiqlarda ramziy tarzda tasvirlanadi. Bu jarayonda ayolning hayo, sadoqat va sabr kabi fazilatlar ulug'lanadi. Shuningdek, ayrim xalq qo'shiqlarida ayolning dardi, ijtimoiy himoyasizligi va ichki iztiroblari ham aks etib, bu holat folklorda ayol obrazining bir yoqlama emas, balki murakkab va ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi.

Ota uyda erka o'sgan, kelin salom,

Qaynanasin onam degan, kelin salom.

Mazkur misralar o'zbek xalq marosim qo'shiqlarida ayol obrazining ijtimoiy maqomi o'zgarishi jarayonini badiiy aks ettiradi. "Ota uyda erka o'sgan" iborasi qiz bolaning ota-onasi bag'rida mehr bilan tarbiya topganini, uning avvalgi ijtimoiy muhitda muayyan erkinlik va himoyaga ega bo'lganini anglatadi. Bu tasvir orqali qizning o'tmish hayoti bilan yangi hayoti o'rtasidagi farq bilvosita ifodalanadi.

"Qaynonasin onam degan" misrasi esa ayolning yangi oilaga moslashishida asosiy axloqiy mezon sifatida hurmat va itoat tushunchalarini ilgari suradi. Qaynona obrazining "ona" bilan tenglashtirilishi xalqning oilaviy munosabatlarda ayoldan kutiladigan muhim fazilatlarni – hayo, sadoqat va murosani belgilab beradi. Bu holatda ayol jamiyat tomonidan belgilangan yangi ijtimoiy rolni ongli ravishda qabul qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Mazkur qo'shiq misralarida ayolning ichki kechinmalaridan ko'ra, uning ijtimoiy xulq-atvori va jamiyat oldidagi mas'uliyati ustuvorlik qiladi. Shu jihatdan "Kelin salom" qo'shiqlari ertaklarga yaqin turadi, ya'ni ayol obrazini normativ model sifatida namoyon etadi. Biroq bu normativlik lirik ohang orqali yumshatilgan bo'lib, ayolga bo'lgan ijtimoiy talablar marosim estetikasi bilan uyg'unlashgan.

Tokchadagi qaychini Zang bosibdi, yor-yor,
Yangi tushgan kelinni G'am bosibdi, yor-yor.

Yoki:

Tog'da toychoq kishnaydi, Ot bo'ldim deb, yor-yor,
Uyda kelin yig'laydi, Yot bo'ldim deb, yor-yor.

Mazkur "Yor-yor" misralari o'zbek xalq marosim folklorida ayol obrazining ichki ruhiy iztiroblari va ijtimoiy begonalashuv holatini badiiy ramzlar orqali ifodalaydi. Ushbu qo'shiqlarda kelin obrazi tashqi tantana fonida ichki g'am va iztirob bilan tasvirlanadi, bu esa folklorda ayol obrazining murakkab va ziddiyatli tabiatini ko'rsatadi. "Tokchadagi qaychini zang bosibdi" misrasi ramziy ma'noga ega bo'lib, u harakatsizlik, yolg'izlik va beparvolik holatini anglatadi. Qaychining zanglashi orqali yangi tushgan kelinning ota uyidagi faolligi va erkinligi cheklanib, uning yangi muhitda o'zini begona his qilayotgani badiiy tarzda ifodalanadi. Keyingi misrada bu ramz bevosita ochilib, "yangi tushgan kelinni g'am bosibdi" degan xulosa bilan mustahkamlanadi.

Ikkinchi bandda qo'llangan qiyosiy tasvir yanada chuqur ma'no kasb etadi. "Tog'da toychoq kishnaydi, ot bo'ldim deb" satrlari erkinlik va tabiiy rivojlanish ramzi bo'lsa, unga qarama-qarshi tarzda "Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim deb" misrasi kelinning ichki fojiasini ochib beradi. Bu yerda "yot bo'ldim" iborasi ayolning yangi oilada o'zini begona,

himoyasiz va yolg'iz his qilayotgan ruhiy holatini ifodalaydi. Mazkur misralar orqali xalq ayolning kelinlik hayotidagi psixologik murakkabliklarni, ijtimoiy moslashuv jarayonining og'riqli jihatlarini yashirmay tasvirlaydi. Shu jihatdan "Yor-yor" qo'shiqlari faqat quvonchli marosim qo'shig'i emas, balki ayolning ichki dardi va sukutdagi nolasi ifodalangan lirik manba sifatida ahamiyatlidir.

Umuman olganda, o'zbek xalq ertaklari va qo'shiqlarida ayol obrazi bir-birini to'ldiruvchi badiiy tizim sifatida shakllangan. Ertaklarda ayol jamiyat uchun ideal xulq-atvor namunasi bo'lib xizmat qilsa, qo'shiqlarda uning ichki ruhiy dunyosi va kechinmalari lirik talqin etiladi. Ushbu ikki janr uyg'unligi orqali o'zbek ayolining ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy qiyofasi mukammal badiiy shaklda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T. O'zbek xalq baxshilari san'ati. – Toshkent: Fan, 2003.
2. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964.
3. Imomov K. O'zbek xalq prozasining badiiyati. – Toshkent: Fan, 1981.
4. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986.
5. O'zbek xalq og'zaki ijodi. (Tuzuvchilar: O. Madayev va boshqalar). – Toshkent, 2010.